



XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2022 - yil 16 - may

VI-60-108-7-92-K/22

Oqdaryo tumani hokimligi

Tuman mahalliy budjeti parametrlarining 2022-yil birinchi choragidagi ijrosi hamda mahalliy budjetning xarajatlar qismiga o'zgartirish kiritish to'g'risida tuman hokimligi Moliya bo'lim mudiri U.Maxmanazarovning hisoboti haqida

Tuman hokimligi Moliya bo'limi tomonidan 2022-yil birinchi chorak mahalliy budjetini sifatli qilib ijrosini ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Natijada, tuman mahalliy budjetining daromadlar qismi prognoz rejasi 115.5 foizga bajarildi yoki rejadagi 20621,3 mln.so'm o'rniga haqiqatda 23827,9 mln.so'm daromad tushirilib, 3206,6 mln.so'm qo'shimcha daromad tushirilishiga erishilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 445-sonli qarori asosida soliq to'lovchilarni to'liq qamrab olish va tushumlar tushishini ta'minlash yuzasidan joriy yilda o'tkazilgan monitoring natijalaridan jami aniqlangan xato-kamchiliklar soni 291 ta bo'lib, va buning natijasida mahalliy budjetga qo'shimcha 501,6 mln.so'm soliq summasi hisoblandi.

Jumladan:

yakka tartibdagi tadbirkorlardan 161 tasidan 209,0 mln.so'm;

umum ovqatlanish korxonalaridan 8 tasidan 197,6 mln.so'm;

bozorlar va savdo komplekslaridan 37 tasidan 9,0 mln.so'm;

boshqa yo'nalishlar bo'yicha 85 ta holatda 86,0 mln so'm;

shu davrdagi tuman mahalliy budjetining xarajatlar 96.3 foizga ijro etilib, 47285,6 mln.so'mlik xarajatlar amalga oshirilgan.

2022-yil birinchi chorak tuman mahalliy budjetda ko'zda tutilgan jami xarajatlarning 70.3 foizi ijtimoiy-madaniy tadbirlar uchun moliyalashtirilgan yoki 33238,6 mln.so'mlik, jumladan maktabgacha ta'lim muassasalari bo'yicha 5625,0 mln.so'm, umumiy ta'lim sohasi bo'yicha 2630,3 mln.so'm, sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha 11674,2 mln.so'm va madaniyat hamda sport bo'limlari bo'yicha 918,1 mln.so'mlik xarajat amalga oshirilgan. (1-ilovaga muvofiq)

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasiga, O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 148-moddasiga, Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi "Oqdaryo tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-51-136-7-92-K/21-son qarori hamda tuman Moliya bo'limining 2022-yil 27-apreldagi 2/06-38/268-sonli xatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, oltmishinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimligi Moliya bo'limi mudiri U.Maxmanazarovning "Tuman mahalliy budjeti parametrlarining 2022-yil birinchi choragida ijrosi hamda mahalliy budjetning xarajatlar qismiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (E.Ashurov), tuman hokimligi Moliya bo'limi (U.Maxmanazarov) va tuman Davlat soliq inspeksiyasi (O.Ilyosovlar) bilan birgalikda:

2022-yil ikkinchi chorak mahalliy budjeti daromadlarining to'liq va o'z vaqtida tushumini ta'minlash;

hududlarning daromad bazasini mustahkamlash va dasturlarning ijrosini alohida nazoratga olish, mazkur Dasturlarda 2022-yil ikkinchi choragida amalga oshirilishi belgilangan tadbirlarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

mahalliy budjetdan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, ijtimoiy nafaqalarni va pensiya to'lovlarini to'liq va o'z muddatida amalga oshirilishini ta'minlash, ularning tijorat banklari tomonidan naqd pul bilan ta'minlanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

budjetdan mablag' oluvchi muassasalar tomonidan ajratilayotgan budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, kreditor qarzdorliklarga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish.

3. 2022 yil-birinchi chorak tuman mahalliy budjetining ijrosini sifatli yakunlash va bu borada budjet tashkilotlarida kreditorlik qarzlari vujudga kelishini oldini olish maqsadida, choraklik xarajatlar miqdorining umumiy mutanosibligini saqlagan xolda tuman mahalliy budjeti ichida rejadagi mablagʻlarni bir xarajat turidan ikkinchi xarajat turiga oʻtkazilishi yoʻli bilan tuman mahalliy budjetidan mablagʻ oluvchilarning xarajatlar smetalariga oʻzgartirish kiritish haqidagi tuman Moliya boʻlimining taklifi 2-ilovaga muvofiq maʼqullansin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (M.Ergasheva) hamda tuman hokimining birinchi oʻrinbosari (E.Ashurov) zimmlariga yuklatilsin.

Kengash raisi



Qudratov Sh.

Xalq deputatlari Oqdaryo tuman Kengashining
2022 yil 16 maydagi
VI-60-108-7-92-K/22-son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyati Oqdaryo tumani mahalliy byudjetining 2022-yil I-chorak daromadlar va xarajatlar ko'rsatkichlari

ming so'mda					
Daromad turlari	Bo'limlar	Prognoz ko'rsatkich	Baja-rilish	Foizda, %	Farqi
Tadbir, shug'ul, jism. va yur. shaxs. darom-ga sol. Soliq	3 111 401	252800	302142	119,5	49 342,1
Yuridik shaxsl. olinad. daromad (foйда) solig'i	3 112 101	261090	474527	181,7	213 436,7
Yagona sol. tulovi.DBA kichik kor. va mikrofirma buyicha	3 112 501	1126433	1336412	118,6	209 979,1
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solin-gan soliq	3 131 101	485700	596965	122,9	111 264,5
Yer solig'i	3 131 203	2628867	4246588	161,5	1 617 720,9
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solin-gan soliq	3 136 100	1060400	1184488	111,7	124 088,0
Jism. shaxs. transp. vosit. uchun benzin, yoqilgi soliq	3 141 201	4496500	4536352	100,9	39 852,2
Aksiz solig'i, jami	3 142 000	4898487	4898487	100,0	0,0
Aloka xizmatlari kursatish uchun aksiz soligidan maxalliy byudjetlarga utkaziladigan mablaglar	3 142 211	1053615	1053615	100,0	0,0
Alkohol maxsulotlari shu jumladan pivo uchun aksiz soligidan maxalliy byudjetlarga utkaziladigan maxsulotlar	3 142 212	3844872	3844872	100,0	0,0
Yer osti boyliklaridan foydalanilgan uchun soliq	3 146 100	1075900	1573684	146,3	497 784,4
Suv resurslaridan foydalanilgan uchun soliq	3 145 204	362300	662339	182,8	300 039,5
Alkogolli maxsulotlar bilan chakana savdo qilish xukuki uchun yigim	3 422 217	254220,0	3 19299	125,6	65 079,1
Boshqa soliq va yig'im. maxal. byudjet. tushad. Qismi	3 450 960	12000	19971	166,4	7 971,4
Daromadlar JAMI		20 621 347,00	23 827 918,51	115,5	3 206 571,5
Korakalpoqiston Respublikasi Toshkent sh. va viloyatlar byudjetidan olingan tartibga soluvchi transfertlar	3 331 252	18103941	16644000	91,9	-1 459 941,0
Korakalpoqiston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar byudjetining erkin koldik mablaglari xisobidan olingan mablaglar	3 620 122	0	1000000	#ДЕЛ/0!	1 000 000,0
Viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan olingan ssudalar	3 620 233	0	845000	#ДЕЛ/0!	845 000,0
Viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan uzaro xisob-kitoblar asosida olingan mablaglar	3 620 237	6123768,5	8462771,72	138,2	2 339 003,2
Respublika byudjetidan aylanma kassa mablaglarini tuldirish uchun olingan mablaglar	3 620 242			#ДЕЛ/0!	0,0
Moliya yili boshiga maxalliy byudjetlarning asosiy gaznachilik xisob varaklaridagi koldiklar xisobidan mablaglar yunaltrish	3 710 201	4274064	3960774,48		
Xarajatlarni qoplash uchun ajratilgan mablag'dan tashqari, byudjetlarning yil boshiga qolgan mablag' qoldiqlari	3 698 000	744203,2	1057492,72	142,1	313 289,5
BALANS	3 890 000	49 867 323,70	55 797 957,43	111,9	5 930 633,7
Soxalar nomi	Sektor №	Prognoz ko'rsatkich	Baja-rilish	Foizda, %	Farqi
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlar - jami	1	34 374 738,50	33 238 575,25	96,7	-1 136 163,3
Maktabgacha ta'lim	1.1	5 775 477,00	5 625 047,42	97,4	-150 429,6
Umumiy ta'lim	1.2	3 000 279,00	2 630 338,86	87,7	-369 940,1
Sog'liqni saqlash	1.4	12 223 349,50	11 674 229,52	95,5	-549 120,0
Madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1.5	335 932,00	325 395,61	96,9	-10 536,4
Sport	1.6	599 319,00	592 711,84	98,9	-6 607,2
Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar	1.8	12 440 382,00	12 390 852,00	99,6	-49 530,0
Iqtisodiyotga xarajatlar-jami	2	3 058 452,00	3 428 949,09	112,1	370 497,1
Suv xo'jaligi tashkilotlari	2.1	151 853,00	148 127,64	97,5	-3 725,4
Qishloq xo'jaligi tashkilotlari	2.2	162 564,00	162 099,95	99,7	-464,0
Veterinariya tashkilotlari	2.6	313 610,00	310 068,48	98,9	-3 541,5
Obodonlashtirish	2.8	2 386 944,00	2 766 158,50	115,9	379 214,5
Drenaj ishlari bilan bog'liq xarajatlar	2.9	43 481,00	42 494,52	97,7	-986,5

Davlat boshqaruv organlarini saqlash	3	3 497 925,00	2 746 184,36	78,5	-751 740,6
Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash	4	1 058 580,00	768 093,34	72,6	-290 486,7
Zahira jamg'armasi	5	424 000,00	411 004,78	96,9	-12 995,2
Boshqa xarajatlar-jami	7	6 709 425,00	6 692 774,20	99,8	-16 650,8
Xarajatlar JAMI	0	49 123 120,50	47 285 581,02	96,3	-1 837 539,5
Ma'lumot uchun:					
Rejadagi aylanma kassa mablag'lari miqdori	7799000			#ДЕЛ/0!	0,0
Yil boshiga qolgan mablag' qoldiqlari	7798000	- 301 796,80	11 492,72	-3,8	313 289,5
Shundan yil mobaynida yo'naltirilganmablag'	7798100			#ДЕЛ/0!	0,0
Aylanma kassa mablag'lari	7799000	1 046 000,00	1 046 000,00	100,0	0,0
DAROMADNING XARAJATDAN OSHGAN KISMI	7970000	-	2 556 396,69	#ДЕЛ/0!	2 556 396,7
Rejali xarajatlarga yo'naltirilgan daromadlarning sarf-xarajatlardan ortgan qismi	7786000			#ДЕЛ/0!	0,0
UZARO XISOB-KITOBLAR BUYICHA VILOYATLAR VA TOSHKENT SHAXAR BYUDJETIGA BERILADIGAN MABLAGLAR	7018503		4 898 487,00	#ДЕЛ/0!	4 898 487,0
B A L A N S	7990	49 867 323,70	55 797 957,43	111,9	6 471 646,3

Moliya bo'limi mudiri:

U.Maxmanazarov

Mudirining birinchi o'rinbosari-bo'lim boshlig'i:

B.Varisov

M.O'

Xalq deputatlari Oqdaryo tuman Kengashining 2022 yil 16 maydagi VI-60-108-7-92-K/22-son qaroriga 2-ilova

2022-yil I-chorak tuman mahalliy yudjetiga kiritilgan o'zgartirishlar

(tas.sum)

Table with 23 columns: Razdel, Podrazdel, Glava, Gruppya rassodov, Kategoriya, Statya i podstatya, Element, Summa izmeneniy (Uvelicheno, Umensheno), V tom chisle po mesyasam (Vsego na I kvartal, Yanvar, Fevral, Mart), V tom chisle po kvartalam (Vsego na II kvartal, Aprel, May, Iyun), V tom chisle po mesyasam (Vsego na III kvartal, Iyul, Avgust, Sentyabr), V tom chisle po mesyasam (Vsego na IV kvartal, Oktyabr, Noyabr, Dekabr).

